

MISR DAVLATIDA “ARAB BAHORI” INQILOBINING KENG TARQALISHIGA SABAB BO’LGAN VAZIYATLAR

G’ofurova O’g’iloy Mamatqul qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378957>

Annotatsiya: Ushbu tezisda “Arab bahori” inqilobining Misr davlatida kelib chiqish sabablari atroflicha yoritib berilgan. Xususan, 2010-yilda boshlangan bu inqilob arab davlatlarida keng tarqalib, ko’p davlatlarning davlat tuzumi o’zgarishiga sabab bo’lgan. Ayniqsa, Misr davlatida bu yaqqol ko’zga tashlanadi. Bundan tashqari, Misr davlatining “Arab bahori” inqilobi davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyati va inqilobning keng tarqalishiga sabab bo’lgan ichki holat keng tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Inqilob, namoyish, monarxiya, ijtimoiy-siyosiy hayot, avtaritar boshqaruv, siyosiy erkinlik, siyosiy doktrina, siyosiy partiya boshqaruvi, ijtimoiy tengsizlik, yosh avlodning noroziligi, siyosiy g’oya, hukmron tuzum.

“Arab bahori” 2010-yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator e’tirozlarga berilgan nomdir. “Arab bahori” atamasini fanga 2011-yilning boshida amerikalik Mark Linch va Djozef Massad tomonidan kiritilgan. “Arab bahori” 1848-yildagi “Xalqlar bahori” va 1968-yildagi “Praga bahori” atamasiga qiyos sifatida o’ylab topilgan. Bunday tasnif bu inqiloblarni liberal-demokratik tuzumlarning o’rnatilishi bilan yakun topadi deb baholangan. “Arab bahori” Charlz Krautxammerning so’zlariga qaraganda 2005-yildayoq demokratlashuvning 4-to’lqini bo’lishi kerak edi. Bunday kayfiyat 2012-yilning yozigacha amerika mutaxassislarining orasida saqlanib turdi, Ya’ni, “Arab bahori” to’g’ri yo’l ekanligiga shubha paydo bo’lgunga qadar.

Bu davrda Misr davlati ijtimoiy-siyosiy hayotida ham boshqa arab davlatlarida bo’lgani kabi ko’plab hal qilinishi kerak bo’lgan masalalar bor edi. Inqilobning boshlanishi ushbu davlatda katta g’alayonlarning boshlanishiga va inqilobning asosiy o’choqlaridan biri bo’lishiga turtki bo’ldi. Xususan, Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e’lon qilinadigan korrupsiya indeksida 2010 yil holatiga ko’ra, Misr 80-o’rinni egalladi. Ayni paytda “Arab bahori” ning Misrda yuz berishiga o’ziga xos sabablar bor edi:

Avtoritar boshqaruv shakli: Husni Muborakning 30 yillik boshqaruvi davrida siyosiy erkinliklar cheklangan, muxolifat ovozi bo’g’ilgan edi. Davlatda H.Muborak hukumatda bo’lgan o’ttiz yil davomida qavm-qarindoshchilik va buning natijasida korrupsiya kuchayib ketdi. Oliy hokimiyatga faqatgina H.Muborakning oila a’zolari va yaqin shaxslari erisha oldi. Oxir-oqibatda mamlakatda lavozimlarni, imtiyozlar sotish va boshqa ko’p turdagi korrupsiya holatlari avj oldi.

Yakka siyosiy partiya boshqaruvi: Siyosiy hokimiyatdan boshqa mafkura va siyosiy g’oyalarga ega siyosiy kuchlarning chetlatilganligi. Qariyb o’ttiz yil davomida parlamentda faqatgina H.Muborak boshchilik qilgan Milliy-demokratik partiya eng ko’p o’rinlarni egallab kelishdi. Qolgan siyosiy partiya va harakat oqimlari egallagan joy ularga ichki va tashqi siyosatni shakllantirishga ta’sir ko’rsatishga hech bir imkoniyat bermas edi.

Shu bilan birgalikda, mo’tadil siyosiy va diniy harakatlarning va ular vakillarining hokimiyatga jalb etilmaganligi, yoki aksincha, hokimiyatdan chetlashtirilishi oxir-oqibat ushbu kuchlarning yagona siyosiy front bo’lib mavjud siyosiy tuzumga qarshi chiqishiga sabab bo’ldi. Xususan, qator g’arb tadqiqotchilarining fikriga ko’ra, Misr inqilobining asosiy tashkilotchilaridan biri Atom energetikasida kafolatlar bo’yicha xalqaro agentlikning sobiq direktori Muhammad al-Baraday bo’ldi.

Ijtimoiy tengsizlik: O'nlab yillar davomida jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy muammolar chuqurlashib bordi. Aholining keng qatlami qashshoqlikda yashar, elita esa boylik va hokimiyatni nazorat qilardi. Milliy boylikning aksariyat qismi siyosiy elita cho'ntagida va xorijiy banklardagi hisob raqamlariga o'tib qolganligi sababli ushbu boyliklardan xalq bahramand bo'la olmay qoldi. Shu bilan birgalikda iqtisodiyotga tegishli e'tibor qaratilmaganligi sababli, aholining iqtisodiy ahvoli tang holatga tushib qoldi, ishsizlik yildan-yilga oshib bordi.

Yosh avlodning noroziligi: Yoshlarda ishsizlik yuqori bo'lib, bu ularning noroziligini kuchaytirgan. Ijtimoiy tarmoqlar esa ular uchun platforma vazifasini bajardi. Ijtimoiy-demografik o'zgarishlar-arab mamlakatlaridagi norozilik harakati faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan juda muhim omildir. Tabiiyki, Misrda boshlangan norozilik harakati yoshlar qo'zg'oloni sifatida butun Misr xalqini egallab oldi.- deydi Britaniya siyosiy va ijtimoiy tadqiqotlar markazi direktori F.Blond. Yoshlarning tez o'sishi yangi ish joylarini talab qiladi. Natijada, bu, ayniqsa, oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining yuqori bo'lishiga olib keldi. Inqilobdan ancha oldin 2002 yilda bo'lib o'tgan "Yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha sammit" dagi tadbirlar Iskandariyada: "Agar barqaror rivojlanishni ta'minlamasak yoshlarning qobiliyatlaridan foydalanishni kafolatlaydigan jahon iqtisodiyoti, falokat kelishi mumkin" deb aytilgan edi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Берг, И.С. Время протестов в арабском мире: оценки западных политиков и экспертов / И.С. Берг. – М.,2011. С.67 <http://www.iimes.ru/?p=12073>.
2. Lunch M. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. –New York: Public Affairs. 2012. P.304
3. Krauthammer Ch. The Arab Spring of 2005 // The Seattle Times. 21 March 2005. // [ttp://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_Krauthammer21.html](http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_Krauthammer21.html)
4. Cofman Wittes T.Learning to Live with the Islamist winter // Foreign Policy. 19 July 2012.// http://www.Foreignpolicy.com/articles/2012/07/19/learning_to_live_with_the_islamist_winter
5. Transparency International.Corruption Perceptions Index 2010. – Berlin: Transparency International, 2010. – P. 8–14.
6. БЫВШИЙ глава МАГАТЭ эль-Барадеи создает "Коалицию за перемены" // <http://www.newsru.co.il/mideast/24feb2010/baradei510.html>.
7. Muhammadsidiqov M.M. Shimoliy-Sharqiy Afrikadagi vaziyatlar. Ko'rfaz davlatlari xavfsizligiga ta'sir qilmoqda // "Ma'rifat", 2008.12 iyul. – 55. (8080) – B.12